

“O‘zbektelekom” AKning
2026-yil “22”- iyundagi
261-son buyrug‘iga
ilova

**“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida
xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish to‘g‘risida nizom**

Toshkent

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish to‘g‘risida nizom

1 Umumiy qoidalar

1.1 Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son, 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-son, 2025-yil 21-apreldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-71-son Farmonlari, 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 829-son qarori talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda - Kompaniya)da korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishi haqida xabar bergan hamda ularga qarshi kurashishda faol ishtirok etgan xodimlarni rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

2 Asosiy tushunchalar

Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanilgan:

korrupsiya - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab, moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaviy harakatlar – xodimning bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoxud uchinchi shaxslar orqali boshqa shaxsning foydasini ko‘zlab harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul mablag‘lari, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olishi, talab qilishi, undirishi, taklif qilishi yoki berishi, pora berishi va/yoki olishi yoki bunda, vositachilik qilishi, belgilangan tartib-taomillarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirishi (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat mavqeyidan noqonuniy foydalanishi, mansab vakolatlarini suiiste‘mol qilishi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

rag‘batlantirish – xodimni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish va unga qarshi kurashishdagi faol ishtiroki, qonuniylik talablariga rioya etishi borasida namuna ko‘rsatganligi uchun qo‘llab-quvvatlash maqsadida taqdirlash;

Kompaniya xodimi – Mehnatga oid huquq layoqatiga va muomala layoqatiga ega bo‘lgan, 16 yoshga to‘lgan hamda Kompaniya boshqaruv raisi yoki Filial direktori bilan mehnat shartnomasi tuzgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, shuningdek chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs.

maxsus bo‘linma - Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmasi.

3 Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish va unga qarshi kurashish

3.1 Kompaniya xodimi (keyingi o‘rinlarda - xodim) qonunchilik hujjatlariga rioya etishi, o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarlikni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o‘zini tiyishi shart.

3.2 Kompaniya rahbariyati korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish uchun quyidagi choralarni ko‘rishlari lozim:

Kompaniyada korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

xodimlarga korrupsiya holatlarini aniqlashda shaxsan o‘rnak bo‘lishi;

xodimga asossiz imtiyozlar yaratish (belgilangan mezonlarsiz rag‘batlantirish va lavozimini ko‘tarish), shuningdek, xodimning nojo‘ya xatti-harakatlariga nisbatan chora ko‘rmaslik (ichki normativ hujjatlarga rioya qilmaslik, faoliyatida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar bo‘yicha chora ko‘rmaslik), qonunchilikka zid harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik;

Kompaniya faoliyatini tizimli tahlil qilib, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradigan omillarni aniqlash va shart-sharoitlarni bartaraf etishning ta’sirchan choralarni qo‘llash.

Kompaniya rahbariyati o‘z vakolati doirasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish yuzasidan boshqa choralarni ham ko‘rishi mumkin.

4 Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar berish

4.1 Xodim Kompaniyada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar mavjudligi yoki uni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undashganligi haqida to‘g‘ridan to‘g‘ri maxsus bo‘linmaga yozma yoki og‘zaki ravishda xabar beradi.

4.2 Yozma xabarda (xabarnoma) quyidagilar aks ettirilishi lozim:

xodimning xizmat joyi, lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi;

Kompaniyada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etayotgan shaxslar, ushbu xodimni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar qilishga undayotgan shaxs yoki shaxslarga oid, ularning shaxsini aniqlashga ko‘maklashuvchi ma’lumotlar va boshqalar;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning mohiyati (lavozimini suiiste’mol qilish, pora olish/berish va boshqa jinoiy harakatlarni sodir etishga undash, hujjatlarni qalbakilashtirish va boshqalar);

korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka undash usuli (muayyan xizmat yoki moddiy qimmatliklar taklif qilish, o‘ziga og‘dirishga harakat qilish va boshqa holatlar);

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik tayyorlanayotgan, sodir etilishi kutilayotgan, sodir etilgan joy;

Kompaniyada mavjud korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar, xodimni bunday huquqbuzarlik sodir etishga undash holati tafsilotlari (maxsus telefon raqami orqali, suhbat jarayoni, shaxsiy muloqot, pochta jo‘natmasi orqali va boshqalar).

4.3 Xodimlarni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash maqsadida qilingan barcha mavjud materiallar xabarnomaga ilova qilinadi va o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladi.

4.4 Xodim maxsus bo'linmaga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida og'zaki xabar berganda, barcha ma'lumotlar maxsus bo'linma xodimi tomonidan yozib olinadi.

4.5 Xodimga o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda jismoniy va yuridik shaxslardan ularning manfaatlarini ko'zlagan holda muayyan harakatni bajarishi yoki bajarmasligi evaziga bevosita o'zi yoki vositachi, pochta jo'natmasi orqali pul, qimmatbaho buyumlar, davolanish va boshqa shu kabi takliflar bilan murojaat qilingan taqdirda, u noqonuniy xatti-harakatlarni to'xtatishni talab qilishi va shaxsni tegishli javobgarlik to'g'risida ogohlantirishi lozim.

4.6 Xodimning o'ziga nisbatan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni qilishga undamoqchi bo'lgan shaxs ogohlantirishlarga qaramasdan, pul yoki boshqa moddiy boyliklarni qonunga xilof ravishda uning xizmat xonasida yoki boshqa joyda qoldirib ketsa, mas'ul shaxslar va boshqa shaxslar ishtirokida dalolatnoma tuziladi. Ushbu dalolatnoma bildirgiga ilova qilingan holda darhol boshqaruv raisiga taqdim etiladi.

4.7 Xodimlar xizmatdan tashqari yoki ish joyida bo'lmagan paytlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holati haqida har qanday aloqa vositasi orqali zudlik bilan maxsus bo'linmani xabardor qilishi shart.

4.8 Xodimlar uchun tayyorlanayotgan, amalga oshirilishi kutilayotgan yoki amalga oshirilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga undash holatlari Kompaniyaning boshqa bir xodimga ma'lum bo'lsa, biroq, ushbu xodim maxsus bo'linmani o'z vaqtida xabardor qilmasa, xodimga nisbatan amaldagi qonunchilik normalariga muvofiq, kelib chiqqan oqibatni inobatga olgan holda, javobgarlik yuzaga kelishi mumkin.

4.9 Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha olingan ma'lumotlarni tekshirish va ular yuzasidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq harakatlarni amalga oshirish uchun xabarnoma hamda unga ilova qilingan barcha hujjatlar maxsus bo'linma tomonidan Kompaniyaning boshqaruv raisiga kiritiladi.

4.10 Xodimlarning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi murojaatlarini ro'yxatga olish, hisobini yuritish maqsadida, maxsus bo'linma tomonidan korrupsion harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reyestri (keyngi o'rinlarda - Reyestr) yuritiladi va belgilangan tartibda saqlanadi.

4.11 Reyestr qat'iy hisobot hujjati hisoblanib, ish yuritish qoidalariga muvofiq rasmiylashtiriladi va uning maxsus joyda xavfsiz saqlanishi ta'minlanadi.

4.12 Reyestrda xabar bergan Kompaniya xodimining familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi shifrlangan holda, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning qisqacha mazmuni va tavsifi, moddiy yoki mulkiy naf ko'rish miqdori, holat yuzasidan tekshiruv o'tkazgan ichki nazorat bo'linmasi xodimi, qabul qilingan yakuniy qaror hamda xodimlar tomonidan taqdim etilgan bildirgi haqida ma'lumotlar qayd etiladi (ilova qilinadi).

4.13 Maxsus bo'linma xodimning xabarnomasini qabul qilish yoki ro'yxatga olishdan bosh tortishiga yo'l qo'yilmaydi.

4.14 Reyestrda xabar qilayotgan xodimning shaxsiy hayoti haqida xabar berish jarayonida ma'lum bo'lgan ma'lumotlar, shaxsiy yoki oilaviy sirlarini aks ettirish taqiqlanadi.

4.15 Yuritilishi tugatilgan Reyestr 10 yil davomida maxsus bo'linmada saqlanadi va tegishli tartibda arxivga topshiriladi.

4.16 Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlar ta'qibga olinmasligi maqsadida ular to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor etilishi taqiqlanadi.

4.17 Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarning sir saqlanishini maxsus bo'linma o'z zimmasiga oladi va kafolatlaydi.

5 Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlarning ko'rib chiqilishini tashkil etish tartibi

5.1 Xabarnomada aks ettirilgan ma'lumotlar tekshiriladi, lozim bo'lsa, belgilangan tartibda xizmat tekshiruvi o'tkaziladi.

5.2 Xabarnomada bayon etilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqishdan asosiy maqsad:

xodimning harakatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni o'rganish va baholash hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasi va faktlarni aniqlash;

moddiy yoki mulkiy naf ko'rish miqdori, pora olishga undash usuli va uni o'z vaqtida aniqlash;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatining kelib chiqishini oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish, xodimlar tomonidan noqonuniy harakatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatining ijtimoiy xavfliligini aniqlash.

5.3 Tekshiruv jarayonida xodimni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash to'g'risidagi belgilar mavjudligi, boshqa xodimlar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilganligi, unga tayyorgarlik ko'rilganligiga oid ma'lumotlar o'rganiladi, shuningdek, mazkur huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimdan tushuntirishlar olinishi mumkin.

5.4 Xabarnomada bayon etilgan ma'lumotlar tegishli tartibda maxsus bo'linma tomonidan ko'rib chiqiladi.

5.5 Zaruratdan kelib chiqib, boshqaruv raisining topshirig'iga ko'ra, xabarnomada bayon etilgan ma'lumotlarning ko'rib chiqilishiga vakolatli davlat organlari ham jalb qilinishi mumkin.

5.6 Xabarnomada bayon etilgan ma'lumotlarni tekshirish 10 ish kunidan kechiktirmasdan amalga oshirilishi lozim. Qo'shimcha tekshiruv o'tkazilishi zarur bo'lgan hollarda xabarnomada bayon etilgan ma'lumotlarni tekshirish muddati boshqaruv raisi tomonidan bir oygacha uzaytirilishi mumkin.

5.7 Xabarnomani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha maxsus bo'linma tashabbusiga binoan Xizmat tekshiruvi o'tkaziladi. Xizmat tekshiruvining xulosasi va to'plangan hujjatlar nazorat tartibida ko'rib chiqilishi uchun belgilangan tartibda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilishi mumkin.

5.8 Xabarnomada og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat alomatlari aniqlangan hollarda belgilangan tartibda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar qilinadi.

6 Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishini oldini olish va unga qarshi kurashishda faol ishtirok etgan xodimlarni rag'batlantirish

6.1 Xodimlarni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilishini oldini olish va unga qarshi kurashishdagi faol ishtirokini rag'batlantirishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

Kompaniyada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olishda va unga qarshi kurashishda faol ishtirok etgan, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va bunga,

imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish borasida Kompaniya rahbariyatiga asosli taklif va tashabbuslarni taqdim etgan, shuningdek, mazkur sohani takomillashtirish bo'yicha salmoqli ilmiy hissa qo'shgan xodimlarni rag'batlantirish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish va unga qarshi kurashishda xodimlarning faolligini yanada oshirish.

6.2 Xodimlar korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida murojaat etib, huquqbuzarliklar (jinoyat)ni oldini olish, to'xtatish va uni to'liq fosh etishda faol ishtirok etganligi uchun, maxsus bo'linma rahbari tomonidan boshqaruv raisi nomiga kiritilgan bildirgiga asosan rag'batlantiriladi. Xodimlarni rag'batlantirish maxsus bo'linma rahbarining vakolati doirasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6.3 Quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lgan taqdirda xodimlar rag'batlantirilishi mumkin: xodimlarga nisbatan korruptsiyaviy harakatlarni taklif etish orqali amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan huquqbuzarliklarning oldi olinishi yoki to'xtatilishida faol ishtirok etish;

tayyorgarlik ko'rilayotgan korruptsiyaga oid yoki boshqa huquqbuzarliklar haqida xabar berishi natijasida jinoyatning fosh etilishi;

jinoyatning to'xtatilishi va uning to'liq fosh etilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga faol ko'maklashish;

aholi o'rtasida korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi targ'ibot va profilaktik tadbirlarda faol ishtirok etish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va bunga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish borasida rahbariyatga takliflar taqdim etish, shuningdek, ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish.

6.4 Xodimni rag'batlantirish, yuqori lavozimlarga yoki davlat mukofotlariga tavsiya qilishda uning korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish va unga qarshi kurashdagi faol ishtiroki muhim mezonlardan biri sifatida inobatga olinadi.

6.5 Kompaniyada faoliyat yuritayotgan xodim tomonidan sohadagi korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etilib, xodim ushbu huquqbuzarliklar (jinoyat)ni oldini olish, to'xtatish va uni to'liq fosh etishda faol ishtirok etganda, asosli ma'lumotlar taqdim etganda, ushbu xodimga yuqori turuvchi organning tegishli tavsiyasiga asosan Kompaniya tomonidan xodimni o'rnatilgan tartibda rag'batlantirish amalga oshiriladi.

7 Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan (korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan) xodimlarni rag'batlantirish asoslari va turlari

7.1 Xodim tomonidan tadqim etilgan xabarnomada aks ettirilgan, Kompaniyada korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar mavjudligi yoki uni korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undashganligi haqidagi ma'lumotlar tasdiqlansa hamda vakolatli organlar tomonidan tegishli qonuniy choralar qo'llanilgandan so'ng, huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslar quyida belgilangan miqdorda bir martalik mukofot puli berilishi orqali rag'batlantiriladi:

a) korruptsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun - bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida;

b) pora summasi yoxud yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha bo'lsa:

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat uchun - bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida;

uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun - bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari miqdorida;

og'ir jinoyat uchun - bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida;

o'ta og'ir jinoyat uchun - bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida;

v) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo'lsa:

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat uchun - bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida;

uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun - bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida;

og'ir jinoyat uchun - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida;

o'ta og'ir jinoyat uchun - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdorida;

g) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ortiq bo'lsa, mukofot puli miqdori quyidagicha belgilanadi:

ko'p miqdor uchun - pora summasi yoxud yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatining o'n besh foizi miqdorida, biroq bazaviy hisoblash miqdorining yuz barobaridan oshmagan holda;

juda ko'p miqdor uchun - pora summasi yoxud yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatining o'n foizi miqdorida, biroq bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz barobaridan oshmagan holda;

bunda, pora summasi yoxud yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatini foizlarda hisoblashda qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdorning eng kam miqdoridan kelib chiqiladi.

7.2 Kompaniya xodimlari bilan bog'liq korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo'lgan dalillar haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga xabar berganlik yoki bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda bevosita ko'maklashgan Kompaniya xodimi (xodimlari) yoxud boshqa shaxslar, boshqaruv raisi tomonidan tashakkurnoma yoki esdalik sovg'asi shaklida taqdirlanadi. Bunda, boshqa shaxslarni tashakkurnoma yoki esdalik sovg'asi shaklida taqdirlash Kompaniyaning Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Esdalik sovg'asining qiymati bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan oshmasligi lozim.

7.3 Quyidagi holatlarda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxs:

ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida xabar berganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining to'rt baravari miqdorida;

har xil tasnifdagi ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida xabar berganlik uchun ushbu jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligidan kelib chiqib, og'irroq tasnifi bo'yicha bir marta;

bir xil tasnifdagi ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida xabar berganlik uchun bir marta;

korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik yoxud jinoyat haqida ikki yoxud undan ortiq shaxsning bergan xabari uchun mazkur Nizomning 7.1-bandi v)- va g)-kichik bandlarida ko'rsatilgan pul mukofotlariga teng miqdorda rag'batlantiriladi.

7.4 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar Kompaniya mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

7.5 Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni rag‘batlantirish faqat ushbu Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi (“O‘zbektelekom” AK xodimlari mehnatiga haq to‘lash to‘g‘risidagi Nizom”da belgilangan rag‘batlantirish tartibi qo‘llanilmaydi).

8 Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish tartibi

8.1 Kompaniya xodimlari o‘zlariga ma‘lum bo‘lib qolgan korruptsiyaviy huquqbuzarliklar yoki ularni korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash bo‘yicha taklif va murojaatlar yuzasidan, to‘g‘ridan to‘g‘ri maxsus bo‘linmani xabardor qilishlari shart. Maxsus bo‘linma, o‘z navbatida, olingan xabar bo‘yicha Kompaniya boshqaruvi raisini bildirgi orqali xabardor qiladi.

8.2 Kompaniyaning xodimlari ishtirokidagi korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish masalasi Kompaniyaning Odob-axloq, mehnat nizosi va korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

8.3 Rag‘batlantirish uchun asos bo‘luvchi quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

xodimning ro‘yxatdan o‘tgan xabarnomasi nusxasi yoxud og‘zaki berilgan xabarni tasdiqlovchi ma‘lumotlar;

sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoxud ayblov hukmi nusxasi.

8.4 Korruptsiyaga qarshi kurashuvchi organlarning rag‘batlantirish bo‘yicha taqdimnomasi va unga ilova qilingan asoslovchi hujjatlar Kompaniyaga kelib tushgan hollarda, taqdimnoma kelib tushgan kundan boshlab, uch ish kuni ichida Kompaniyaning Odob-axloq, mehnat nizosi va korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyasiga taqdim etiladi.

8.5 Kompaniyaning Odob-axloq, mehnat nizosi va korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyasi tomonidan rag‘batlantirishga oid hujjatlar olingan kundan boshlab, besh ish kuni ichida taqdim etilgan hujjatlarning to‘liqliligi, asosiligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinganligi ko‘rib chiqiladi.

8.7 Rag‘batlantirish uchun taqdim etilgan hujjatlar to‘liq emasligi hamda ushbu Nizomda belgilangan talablarga rioya qilinmaganlik holati aniqlangan taqdirda, ikki ish kuni ichida qaytariladi.

Qaytarish uchun asos bo‘lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, tegishli hujjatlar ushbu Nizom talablari asosida rag‘batlantirish uchun qayta taqdim etilishi mumkin.

8.8 Kompaniyaning Odob-axloq, mehnat nizosi va korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyasi tomonidan chiqarilgan qarorlar ijrosi ustidan nazorat maxsus bo‘linma tomonidan amalga oshiriladi.

8.9 Kompaniyaning Odob-axloq, mehnat nizosi va korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyasi chiqaradigan qarorlar barcha xodimlar tomonidan bajarilishi majburiydir.

8.10 Kompaniyaning Odob-axloq, mehnat nizosi va korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyasi raislari Komissiya tomonidan qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi, xolisligi hamda shaxslarning shaxsiga oid ma‘lumotlar oshkor etilmasligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

8.11 Kompaniyaning Odob-axloq, mehnat nizosi va korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyasining xodimni mukofot puli bilan rag‘batlantirish to‘g‘risida qabul qilgan qarori asosida 5 (besh) ish kuni ichida Kompaniyaning tegishli buyrug‘i imzolanadi. Mazkur buyruq asosida 5 (besh) ish kuni ichida xodimning hisob raqamiga mukofot puli o‘tkazib beriladi.

8.12 Kompaniyaning Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi tomonidan xodimni esdalik sovg'asi bilan rag'batlantirish to'g'risida qabul qilingan qarori asosida belgilangan tartibda esdalik sovg'asi xarid qilinadi va xarid qilingandan so'ng, 5 (besh) ish kuni ichida xodimga topshiriladi.

8.13 Tashakkurnoma shaklida rag'batlantirish masalasi bevosita Kompaniyaning boshqaruv raisi tomonidan ko'rib chiqiladi.

9 Yakuniy qoidalar

9.1 Ushbu Nizom Kompaniyaning buyrug'i bilan tasdiqlangan kundan boshlab, kuchga kiradi. Nizomga o'gartirish va qo'shimchalar kiritilishi hamda uning bekor qilinishi Kompaniyaning buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

9.2 Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

9.3 Rag'batlantirilgan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarning hisobi maxsus bo'linma tomonidan yuritiladi.

9.4 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida ular haqidagi ma'lumotlar oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaydi (qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar bundan mustasno).

9.5 Xodimlar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida maxsus bo'linmadan tashqari belgilangan tartibda Huquqni muhofaza qilish organlariga ham murojaat qilishlari mumkin.

9.6 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida Huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilgan va mazkur murojaat natijasida davlat tomonidan rag'batlantirilgan xodimlar Kompaniya tomonidan rag'batlantirilmaydi.

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyada
 korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida
 xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish
 to‘g‘risidagi nizomga ilova

**Kompaniyaning korrupsion harakatlar haqidagi xabarlarini qabul qilish
 REYESTRI**

T/r	Xabar bergan Kompaniya xodimning F.I.O.	Lavozimi	Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishiga undash holatining qisqacha mazmuni va tavsifi	Moddiy yoki esdalik sovg‘asi (nomi) va miqdori	Qabul qilingan yakuniy qaror	Holat yuzasidan tekshiruv o‘tkazgan maxsus bo‘linma xodimining F.I.O.
1	2	3	4	5	6	7
...						